

MAQSUD SHAYXZODA TARJIMON SIFATIDA

Xayriyev Xayriddin Sirojiddin o'g'li
Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi
xayriddinxayriyev10@gmail.com
+998932790455

Annotasiya:

Ushbu maqolada ikki xalqning zabardast ijodkori ya'ni O'zbek va Azarbayjon elining sevimli vakili bo'lmish Maqsud Shayxzoda haqida gap boradi. Uning ko'p qirrali ijodi va turli sohalarni juda puxta egallaganligi ham yoritib o'tiladi. Yana shuningdek Maqsud Shayxzodaning tarjimonlik faoliyati va o'zbek kitobxonlari tomonidan o'qilayotgan chet el adabiyotlarining tarjima qilingan kitoblariga o'zining qo'shgan hissasi va ilm fanga tarjimon sifatida qoldirgan nodir asar namunalari haqida aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, asar, tarjimon, faoliyat, roman, ijodkor, kitobxon, adabiyot, sonet, she'r, drama, soha.

MAKSUD SHEIKZADE AS A TRANSLATOR

Annotation:

This article talks about Maksud Sheikhzade, the great creator of two peoples, the beloved representative of the Uzbek and Azerbaijani people. His multi-faceted creativity and mastery of various fields are also highlighted. It is also mentioned about Maksud Sheikhzade's work as a translator, his contribution to the translated books of foreign literature read by Uzbek readers, and the rare examples of his work as a translator.

Key words: translation, work, translator, activity, novel, creator, reader, literature, sonnet, poem, drama, industry.

МАКСУД ШЕЙХЗАДЕ КАК ПЕРЕВОДЧИК

Аннотация:

В данной статье рассказывается о Максуде Шейхзаде, великом творце двух народов, любимом представителе узбекского и азербайджанского народов.



Также отмечены его многогранное творчество и мастерство в различных областях. Также упоминается о переводческой деятельности Мақсуда Шейхзаде, его вкладе в переводные книги зарубежной литературы, читаемые узбекскими читателями, и редкие примеры его переводческой деятельности.

Ключевые слова: перевод, работа, переводчик, деятельность, роман, творец, читатель, литература, сонет, стихотворение, драма, индустрия.

Kirish

Barchamizga ma'lumki Maqsud Shayxzodaning tug'ilib o'sgan vatani bu Azarbayjon elining Oqtosh o'lkasi hisoblanadi. Uning O'zbekiston poytaxti bo'lmish Toshkent shahriga kelib qolish sabablarini esa biz uning hayoti va ijodini o'rganish mobaynida bilib olganmiz. Uning Toshkentga kelishining eng asosiy sababi bu o'sha davrda aksil inqilobiy kuchlar tufayli unga yolg'on tuhmat va bo'htonlarni uyushtirib surgun qilish bo'lgan. Lekin taqdir taqozosi bilan Maqsud Shayxzodaning Toshkentga surgun qilinishi uning keyingi ijod faoliyati va hayot kechirish tarziga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Nimagaki desangiz O'zbek xalqi azal azaldan mehmondo'st, ko'ngli ochiq, mehribon hamda oq ko'ngil xalqligi bilan o'zining shuhratini ko'tarib kelmoqda. Buning yorqin namunasi sifatida ikkinchi jahon urushi davridagi minglab bolalarni asrab olgan o'zbek xalqini aytishimiz mumkin.

Asosiy qism. Yuqorida aytib o'tilganidek Maqsud Shayxzodani bekorga ko'p qirrali ijodkor hamda turli sohalarni juda puxta bilguvchi shaxs deya atamadik. Sababiki, Maqsud Shayxzoda nafaqat yozuvchi balki ko'plab she'rlarning ham iste'dodli muallifidir. U shunchaki yozuvchilik va shoirlik bilan cheklanib qolmadi, shuningdek ijod etishda, o'zining bilimini, salohiyatini hamda dunyoqarashini boyitish maqsadida ko'plab sohalarni o'rgandi. U adabiyotshunos olim, dramaturg hamda pedagoglik sohaslarini ham juda chuqur o'rganib ularda ham ijod qilib o'zining nodir ijod namunalarini yaratadi. Bularga qo'shimcha tarzda Maqsud Shayxzoda tarjimonlik sohasini ham juda yaxshi bilgan. Bilamizki Maqsud Shayxzoda yashagan paytlarda til o'rganish juda ham qiyin bo'lgan. Sababi, o'sha paytlarda xuddi hozirgidek til o'rgatish kurslari yoki ularni mustaqil tarzda o'rganish uchun turli xildagi qo'llanmalar hamda video darslar bo'lmagan. Lekin o'shanday vaziyatda ham u bir necha tillarni o'rgangan va tarjimonlik faoliyatini ham yuritgan. Uning tarjima faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u Shota Rustavelining „Yo'lbars terisini yopingan pahlavon“ asarini gruzin tilidan o'zbek tiliga yana bir



tarjimon bilan hamkorlikda tarjima qiladi. Bundan tashqari ham u bir necha yozuvchi va shoiz asarlarini tarjima qilgan, jumladan, Uilyam Shekspirning bir qancha sonetlatini ham ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tishim kerakki sonet bu qat’iy qonun-qoidalar asosida yaratiladigan , 14 misradan iborat bo‘lgan turg‘un she’riy shaklidir. Shuningdek u mashhur rus yozuvchisi bo‘lmish, Aleksandr Sergeyevich Pushkin ko‘plab she’rlari hamda uning barchamizga tanish bo‘lgan „ Mis chavandoz “ dostonini va „ Motsart va Salyeri “ tragediyasini rus tilidan o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Maqsud Shayxzoda yana bir rus yozuvchisining ham ijodiga befarq bo‘lmagan. U Lermontovning ham bir qancha she’rlarini va „ Kavkaz asiri “ dostonini tarjimonlik mahorati ila o‘zbeklashtiradi. Shuningdek, u mashhur turk shoiri bo‘lmish Nozim Hikmat Ranning „ Ovozimiz “ she’rini ham turk tilidan o‘zbek tilga tarjima qiladi. Bulardan tashqari u Nizomiy, Fuzuliy, Ezop, Gyote, Mirza Fatali Oxundov, Esxil, Bayron hamda Mayakovskiyning ham ko‘plab asarlarini katta mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qiladi.

Xulosa. Yuqorida aytib o‘tilgan ma’lumotlardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, Maqsud Shayxzoda serqirra ijodkordir. U nafaqat yozuvchi , dramaturg va boshqa soha egasi balki mahoratli tarjimondor ham. Biz uning tarjima qilgan asarlaridan kelib chiqqan holda uning nechta til bilishini ham aniqlay olamiz. Sh. Rustavelining asarlarini tarjima qilish orqali gruzin tilini bilishi, Shekspir asarlarini tarjima qilish orqali ingliz tilini bilishi, Pushkin va Lermontov asarlarini tarjima qilish orqali esa rus tilini bilishi va Nozim Hikmat Ranning she’rlarni tarjima qilish orqali turk tilini bilishiga amin bo‘lishimiz mumkin. Bizning bilganlarimiz shular bo‘lsa , hali bilmagan ma’lumotlarimiz ham anchaginadir. Demak, biz sevib o‘qiydigan chet el asarlari va she’rlarining tarjimasida Maqsud Shayxzodaning ham hissasi anchagina hisoblanadi.

References :

1. To‘xliyev, Boqijon Adabiyot (majmua) [Matn]: K. III: akademik litseylarning III bosqich o‘quvchilari uchun / B. To‘xliyev, T. Shermurodov, Sh. Isayeva. Tuzatilgan va to‘ldirilgan nashr Toshkent: BAYOZ, 2019. 640 b.
2. Adabiyot ikkinchi qism umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf uchun darslik-majmua
3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Zokirov M., Maqsud Shayxzoda. Adabiytanqidiy ocherk, T., 1969;



5. G'afurov I., O'rtoq shoir. Maqsud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975;
6. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.
7. Shayxzoda Maksud. Shoir kalbi duneni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. 28 b. (o'zbekcha)
8. Iroda Izatullaevna Ismatullaeva, Liliya Yurevna Filimonova, & Achilov Oybek Rustamovich (2022). SOCIOLINGUISTICS AND ITS DEVELOPMENT AS AN INDEPENDENT SCIENCE. Academic research in educational sciences, 3 (10), 621-628.
9. O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI.
10. GOOGLE internet tarmog'i.

